

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**IJTIMOIY FANLAR FAKULTETI**

**PEDAGOGIKA VA IJTIMOIY ISH KAFEDRASI**

**“UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMINING USTUVOR  
VAZIFALARI: MUAMMOLAR, YECHIMLAR  
VA ISTIQBOLLAR”**

**respublika ilmiy-amaliy konferensiya**

**MATERIALLARI**

**2024-yil 5-noyabr**

**Termiz-2024**

плане над контролем замысла высказывания, над подбором необходимых слов, словосочетаний и построением связных предложений. Для устной речи различают правильность орфоэпическую и произносительную. Письменная речь имеет свою специфику: она всегда требует большего контроля, чем устная речь. Основным звеном в развитии письменной речи является развитие связной речи – умение отобразить в речи все существенные связи предметного содержания так, чтобы смысловое содержание речи образовало контекст, понятный для другого. Овладевая письменной речью, дети открывают для себя, что тексты бывают разными по своей структуре и имеют стилистические различия: повествования, описания, рассуждения, письма, статьи и прочее. Речь младшего школьника разнообразна по степени произвольности, сложности, планирования, но его высказывания весьма непосредственны. Часто это речь-повторение, речь-называние, у ребенка может преобладать сжатая, непроизвольная, реактивная (диалогическая) речь. А.Р. Лурия и Л.С. Выготский отмечали, что речь выступает для ребенка как стекло, через которое видно что-то, но самого стекла (слова) не видно».

Особенностью развития речи в младшем школьном возрасте является формирование письменной речи, хотя она во многом беднее устной.

#### **Литература:**

1. Астапов В.М. Диагностика развития понятийных форм мышления. – М., МИПКРО, 1995.
2. Валлон А. Психическое развитие ребенка. М., 1967.
3. Берулава Г.А. Диагностика и развитие мышления подростков. Бийск, 1993
- Божович Л.И. Личность и ее формирование в детском возрасте. Психол. исслед. – М.: Просвещение, 1968
- Возрастные возможности усвоения знаний / Под ред. Д.Б. Эльконина, В.В. Давыдова. М.: Просвещение, 1966.
4. Выготский Л.С. Кризис семи лет Собр. соч. – В 6-ти тт. – Т. 4. М.: Педагогика, 1984.
5. Выготский Л.С. Мышление и речь. Собрание сочинений; т. 2 – М. 1982.
6. Выготский Л.С. Собрание сочинений: В 6-ти т. Т. 2. Проблемы общей психологии / Под ред. В.В. Давыдова. – М.: Педагогика, 1982. – С. 18–19.

## **UMUMTA'LIM MAKTABLARINING ELEKTRON AXBOROT TA'LIM MUHITINI YARATISH VA O'QUVCHILARDA AXBOROT KOMMUNIKATSION KOMPETENTLIK (AKK)NI RIVOJLANTIRISH**

*Haytbayeva Sayyora Raximberganovna  
Xalqaro Nordik Universiteti katta o'qituvchisi (PhD)*

Umumta'lism muktablarining elektron axborot ta'lismuhitini yaratish so'f texnik masala bo'lib qolmasdan, balki, buning uchun muassasaning ilmiy-metodik, tashkiliy va pedagogik imkoniyatlarini tizimli yondashuv asosida jalb etish talab etiladi. Chunki, elektron axborot-ta'lismuhiti aniq bir maqsadga yo'naltirilgan o'quv

jarayonini ta'minlovchi dasturiy, axborot-texnik, o'quv-metodik tizimlar majmui hisoblanadi. Ammo, elektron axborot ta'lim muhitini ta'riflashda bir qancha o'zaro farq qiluvchi qarashlar ham mavjud, jumladan:

- shaxs bilan ta'lim muhitining sub'ekt sifatida uzviy bog'langan axborot, texnik, o'quv-metodik ta'minotning tashkillashtirilgan majmuasi;

- elektron axborot tashuvchilar, virtual kutubxonalar, taqsimlangan ma'lumot bazalari, o'quv-metodik majmularini mujassamlashtiruvchi kompyuter, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari integratsiyasi asosida qurilgan yagona axborot ta'lim muhiti.

Ta'lim muassasalarida elektron axborot-ta'lim muhiti quyidagi tipologik belgilarga ko'ra tavsiflanadi:

1. Har qanday darajadagi elektron axborot-ta'lim muhiti tizimlilik tabiatiga ega murakkab tuzilmali ob'ekt bo'lib hisoblanadi.

2. Elektron axborot-ta'lim muhitining yaxlitligi tizimlilikka erishish tushunchasi bilan bir ma'noni, ularning uyg'unligini anglatib, ta'lim muassasasi bitiruvchisi modelini amalgalashirishdagi ta'lim-tarbiya maqsadlarini o'zida mujassamlashtiradi.

3. Elektron axborot-ta'lim muhiti ta'lim va tarbiya ishlarining samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omil bo'lishi bilan birga uning vositasi hamdir.

Umumta'lim maktablarida axborot ta'lim muhitini yaratishda va uni boshqarishda tizimli yondashuvni joriy qilish talab etiladi. Ushbu yondashuvning dastlabki bosqichida zamonaviy ta'lim mazmuniga mos ravishda ta'lim muassasasi axborot-ta'lim muhiti maqsadi belgilanadi. Pedagogik faoliyatda ta'lim maqsadi tizimlashtiruvchi vazifani bajaradi. Aynan belgilangan maqsad ta'lim mazmuni, maqsadi, tashkiliy shakllarini tanlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki, zamonaviy ta'limning asosiy maqsadi – mutaxassis modeli talablariga mos ravishda shakllantiriladigan bilim, ko'nikma va malakalar tizimidan tarkib topib, u tegishli ta'lim standartlarida o'z aksini topadi. Bundan tashqari pedagogikaning zamonaviy talablariga ko'ra o'quvchi shaxsi pedagogik jarayon ob'ektigina bo'lib qolmasdan, uning sub'ektiga ham aylanib bormoqda.

Umumta'lim maktablarining elektron axborot-ta'lim muhiti quyidagi uchta asosiy vazifalarni bajaradi:

-tashqi muhit sub'ektlariga zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida ta'lim muassasasining axborot-ta'lim muhiti to'g'risida tasavvur hosil qilishga yordamlashish;

-ta'lim muassasasida o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligini oshirish hamda o'zaro axborot-ta'lim resurslari almashishi muhitini yuzaga keltirish;

-ta'lim muassasasida axborot-ta'lim muhiti vositalari orqali samarali axborot almashinuvini tashkil etish va boshqarish.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni ta'lim jarayonida joriy etish – zamonaviy jamiyatda mustaqil ta'limning ayrim masalalarini hal qilish, har bir o'quvchiga, uning qiziqishlari, qobiliyatları va ehtiyojlarini hisobga olgan holda, butun hayoti davomida ta'limga erkin va ochiq kirishni ta'minlash demakdir. Elektron axborot ta'lim muhiti (EATM) imkoniyatlaridan samarali foydalanish uchun fan o'qituvchisining o'zi foydalanish, yo'nalish ola bilishi, vositalarni qo'llay bilish kompetensiyalarining to'liq egallagan bo'lishi talab etiladi.

Tahlillar ko'rsatadiki, «axborotli kompetentlik» tushunchasi bir ma'noli emas. Uni turli nuqtai nazardan, kasbiy kompetentlikning tarkibiy qismi sifatida ham, shaxsning axborot madaniyatining tarkibiy qismi sifatida ham baholashadi. Ahamiyatli belgilari sirasiga kompyuterdan zaruriy texnik vosita sifatida foydalanish, o'quvchilarining faol ijtimoiy pozitsiyasi va motivatsiyasining ifodalanganligi, axborotni izlash, tahlil qilish va foydalanishga oid bilim, ko'nikma va malakalarini kiritish mumkin.

Bugungi kunda nafaqat pedagogik hamjamiyat, balki umuman jamiyat ham kompyuter savodxonligi ta'limning juda muhim elementi ekanini anglab yetdi. Axborot kommunikatsion kompetentlikni shakllantirish faqat texnologik ko'nikmalarni shakllantirish sifatidagina baholanmaydi. Axborotlashtirish jarayonining natijalaridan biri ta'lim oluvchilar va pedagoglarda axborot bilan ishslashda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanish qobiliyati shakllanganligi bo'lishi lozim. Ular kerakli ma'lumotlarni izlash, qayta ishslash, tahlil qilish, baholash, shuningdek axborotni produksiyalash va maqsadga muvofiq holda tarqatishni uddalay olishlari lozim.

Axborot kommunikatsion kompetentlikni shakllantirish o'quvchi shaxsiy, ijtimoiy yoki global muammolarni hal qilish uchun axborotni topish, tushunish, baholash va turli shakllarda qo'llay olishga qodir bo'lgan holatga o'tish jarayonidir. Axborot kompetentligini ishlab chiqish, eng avvalo, fikrlash va masalalarni hal qilishning universal ko'nikmalarini shakllantirishni ko'zda tutadi. Bularga kuzatish va mantiqiy xulosalar qilish, turli belgilar tizimlari va mavhum modellardan foydalanish, vaziyatni turli nuqtai nazardan baholash, iboralarning umumiyligini kontekstida yashirin ma'nolarini fahmlash, bu sohada o'z kompetentligini oshira borish ustida tinimsiz mustaqil ishslash ko'nikmalari kiradi.

Ta'limni axborotlashtirish-ta'lim sohasini ta'lim, tarbiyaning psixologik-pedagogik maqsadlarini amalga oshirishga yo'naltirilgan zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanishning optimal metodologiyasi va amaliyoti bilan yengillashtirish jarayoni. Bu jarayon:

- birinchidan, ilmiy-pedagogik axborotning avtomatik banklari, axborot-metodik materiallar, shuningdek kommunikatsion tarmoqlardan foydalanish asosida ta'lim tizimini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish;

- ikkinchidan, jamiyatni axborotlashtirish sharoitida o'quvchi shaxsini rivojlantirish vazifalariga muvofiq keladigan ta'lim-tarbiyaning mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllarini saralash metodologiyasi va strategiyasini takomillashtirish;

- uchinchidan, ta'lim oluvchining intellektual potensialini rivojlantirish, bilimlarni mustaqil o'zlashtirish, axborot-o'quv, eksperimental-tadqiqotchilik, axborotni mustaqil qayta ishslash faoliyatini amalga oshirish malakalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'limning metodik tizimlarini yaratish;

- to'rtinchidan, o'quvchilarining bilim darajasini nazorat qilish va baholashning kompyuter test, tashhis metodikalarini ishlab chiqishni rag'batlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Aripov M., Begalov B., Begimqulov U., Mamarajabov M. Axborot texnologiyalari. O'quv qo'llanma. T.: Noshir. 2009, 368b.

2. Атутов П.Р., Ложкин В.М. Подготовки преподавателей для профессиональной подготовки учащихся//Сов.Педагогика. – Москва, 1985. – №2. – С.54-57.
3. Azizxodjaeva N.N.Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.-T.: “Moliya”, 2003, –B.192.
4. Golish L. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari // «Xalq ta’limi». – Т.: “O‘qituvchi”, 2000. – №3. – 24-30 b.
5. Башев В.В. Ключевые компетентности в образовании в области обществознания: основные гипотезы [Электронный ресурс] / В.В. Башев – Режим доступа: <http://conf.univers.krasu.ru/veport/rep3.html>.
6. Беспалько В.П. Образование и обучение с участием компьютеров (педагогика третьего тысячелетия) / В.П. Беспалько. – Москва:изд. Московского психолого-социального института, Воронеж :изд-во НПО «МОДЕК», 2002. – 352 с.
7. Ergasheva G.S./Biologiya fani ta’limida axborot texnologiyalaridan foydalanish vosita va usullari. // Maktabda biologiya fani jurnali.. 2009. 4-son. – Toshkent, 10-14 b.
8. Fayzullaev S.S., Ibodova M.N./ Biologiya fanini o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish yo‘llari//Respublika ilmiy amaliy konferensiya. – Toshkent, 2011. 2-tom 158-160 b.
9. Haytbayeva S.R. Biologiya ta’limiga kompetensiyaviy yondoshuvni joriy etish va ta’lim jarayonini optimallashtirishda elektron axborot ta’lim resurslarini yaratish. Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti ilmiy jurnali. 1/9, 2023-yil. 192-196-b.

## **O‘QUVCHILARINING IJODKORLIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH VA BAHOLASHDA PIRLS XALQARO DASTURIDAN FOYDALANISH METODIKASI**

*Ko‘makova Dilshoda Shirinqulovna  
Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti o‘qituvchisi*

**Annotatsiya** Ushbu maqolada PIRLS xalqaro tadqiqotining ta’lim jarayonida qo‘llanilish jarayonlari, o‘quvchilarining ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda uning o‘rni va ahamiyati, taqdiqotning yo‘nalishlari va o‘tkazilish tartibi haqida ma’lumot keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** xalqaro tadqiqot, tadqiqot dasturi, ijodkorlik, qobiliyat, baholash jarayonlari, xalqaro baholash dasturi, PIRLS tadqiqoti, tadqiqot metodikasi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxaslariga bo‘lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o‘z-o‘zidan o‘quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o‘qituvchilarining har tomonlama ta’lim- tarbiyaga e’tiborini kuchaytirishni talab etadi.